

1. O'zbekistonning suv manbalari



O'zbekistonda qanday suv havzalari – okeanlar, dengizlar, ko'llar, daryolar bor?

O'zbekistonning okean va dengizga bevosita chiqish yo'li yo'q, shuning uchun vatanimizning asosiy suv manbalari – daryo va ko'llardir. O'zbekistonning 600 dan ortiq daryo va jilg'alari Tyan-Shan tog' tizimidagi muzliklardan boshlanadi. Ularning suvi tog'lardagi cho'qqi va qoyalar orasidan oqib keladi. Shu tufayli tog'li hududlarda nihoyatda chiroyli sharsharalarni uchratish mumkin.

O'zbekistondagi daryolar boshqa daryolarning irmog'i hisoblanadi hamda ko'llarga yoki Orol dengiziga borib quyiladi.




Tyan-Shan tog'laridagi sharshara



Aydarko'l



Chotqol tog' daryosi



Anhor kanali



O'zbekiston xaritasiga qarab, ikkita daryo, ikkita ko'l, ikkita suv omborini toping. Ularning nomini yozing.


2. O'zbekistonning daryolari



Guruhlarga bo'linib, sinfdoshlaringiz bilan shunday o'yin o'ynang: bir minutda qaysi guruh xaritadan O'zbekistondagi daryolarning ko'proq nomini daftariga yoza oladi?

O'zbekistondagi eng katta va sersuv daryolar – Amudaryo bilan Sirdaryo.

Amudaryo Markaziy Osiyodagi eng yirik daryolardan biri hisoblanadi. Uning uzunligi 2600 km. Amudaryoning ikkita asosiy irmog'i baland tog'lardan boshlanadigan Panj va Vaxsh daryolaridir. Amudaryo sharqdan g'arbga tomon cho'zilgan daryo bo'lib, bir necha davlatlar hududini kesib o'tadi. Amudaryo suvlari avval Tojikistonni, keyin Turkmaniston va Afg'onistonni kesib o'tadi. Amudaryo Markaziy Osiyoda ham eng sersuv daryo hisoblanadi. Bu daryo bir paytlar Orol dengiziga kelib quyilgan va uning asosiy ta'minotchisi bo'lgan. Biroq o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab Amudaryoning suvlari dalalarni sug'orishga burib yuborilishi oqibatida uning sathi keskin pasaydi. Shu sababli bugungi kunda daryo suvi Orol dengiziga yetib bormayapti.



Sirdaryo ham Markaziy Osiyoning eng katta daryolaridan biridir. Unga ikkita tog' daryosi – Norin va Qoradaryo quyiladi. Sirdaryo ham O'zbekistondan tashqari, Tojikiston va Qozog'iston hududlarini kesib o'tib, oxirida Orol dengiziga quyiladi.



O'zbekiston xaritasidan Amudaryo, Sirdaryo va Orol dengizini toping va ularni ko'k rangga bo'yang.

3. Orol dengizi



O'zbekistonning eng muhim ekologik muammolaridan biri Orol dengizining qurib borayotganidir. Siz bu muammo haqida nimalarni bilishingizni aytib bering.

Bir paytlar Orol dengizi kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi o'rinda turadigan ko'l bo'lgan edi. Hozir esa uning dastlabki holatining o'ndan biri ham qolmagan. Orol dengizining suvi nihoyatda sho'rlanib, Dunyo okeanidan 4 baravar sho'rroq holga kelgan. Orolning qurishi faqat dengizning o'zigagina zarar yetkazayotgani yo'q. Qurib qolgan Orol dengizining o'rnidagi o'nlab kvadrat kilometr yerlar tuz bilan qoplangan. Bu tuz tuproqqa, o'simliklarga, binolarga singib boryapti, shuningdek, o'simlik va hayvonot dunyosining yo'qolib borishiga sabab bo'lyapti. Bugungi kunda ekologlar Orolni qutqarishga urinishyapti, lekin yetkazilgan zarar haddan tashqari katta. Orol dengizini qayta tiklash uchun juda uzoq vaqt talab etiladi.



Oddiy suv dengiz suvidek sho'r bo'lishi uchun bir litr suvda 35g tuzni eritish kerak. Orol dengizi suvidek sho'r suv hosil bo'lishi uchun bir stakan (200ml) suvga necha choy qoshiq tuz solish kerakligini hisoblab toping.



Aslida, Orol – dengiz emas, ko'l, chunki u okeanga ulanmagan. Ammo o'zi juda katta, suvi sho'r bo'lgani sababli ajdodlarimiz uni dengiz deb atashgan.

4. Suv omborlari va yerosti suvlari



O'zbekiston xaritasidan suv omborlarini toping. Ular qaysi viloyatlarda joylashgan?

Suv omborlari nima maqsadda qurilishini siz allaqachon bilasiz. Odatda, ba'zi suv omborlari daryolarda suv ko'payib, toshqin bo'lishining oldini olish maqsadida quriladi. Keyinchalik, daryo suv sathi pasaygan paytda bu omborda saqlab qo'yilgan suv bilan dalalarni sug'orish yoki yaqin atrofdagi shahar va qishloqlarni suv bilan ta'minlash mumkin. Ba'zi suv omborlarining yana bir vazifasi bor – ularning to'g'onlariga gidroelektrostansiyalar quriladi.

Quyidagi suratda Chorvoq gidroelektrostansiyasi uchun barpo qilingan Chorvoq suv omborini ko'rish mumkin.



1. O'zbekistondagi qanday daryolarni bilasiz?
2. Orol dengizi muammolari haqida aytib bering.
3. O'zbekiston xaritasidan daryo va ko'llarni toping.



Orol dengizi muammosiga katta yoshdagilarning e'tiborini tortish uchun nima qilish mumkin? O'z taklifingizni ayting.